

**Xafiza Niyazova**

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti  
"Kino san'ati va audiovizual tadqiqotlar" bo'limi yetakchi ilmiy xodimi,  
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim,  
E-mail: hafizaasal@gmail.com  
ORCID: 0009-0006-7935-0071*

## **YANGI DAVR O'ZBEK BADIY FILMLARIDA ZAMONDOSH OBRAZI VA JAMIYAT MUAMMOLARI REPREZENTATSIYASI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada 2017–2026-yillarda yaratilgan zamonaviy o'zbek badiiy filmlarida zamondosh obrazi va qahramon konsepsiyasining shakllanishi hamda evolyutsiyasi atroflicha tahlil qilingan. Filmlarda zamondoshlarning ruhiy-ma'naviy olami, global tahdidlar va ijtimoiy muammolar (terrorizm, korrupsiya, mehnat migratsiyasi va oilaviy munosabatlar)ning janrlar kesimida aks ettirilishi ilmiy asoslangan. Tahlillar asosida bugungi o'zbek kinematografida umumiylikdan xususiylikka, ya'ni muayyan va dolzarb insoniy muammolarni teran yoritishga yo'naltirilgan badiiy tendensiya mavjudligi xulosa qilingan.*

***Kalit so'zlar:** zamonaviy o'zbek kinosi, zamondosh obrazi, badiiy talqin, ijtimoiy muammolar, janrlar evolyutsiyasi, ekran va jamiyat, milliy kinematografiya.*

## **ОБРАЗ СОВРЕМЕННОГО И РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ В УЗБЕКСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ФИЛЬМАХ НОВОГО ПЕРИОДА**

***Аннотация.** В данной статье подробно анализируется формирование и эволюция образа современника и концепции героя в узбекском художественном кинематографе 2017–2026 годов. Научно обосновано отражение духовно-нравственного мира современников, а также глобальных угроз и социальных проблем (терроризм, коррупция, трудовая миграция, семейные отношения) в разрезе различных киножанров. На основе анализа сделан вывод о наличии в современном узбекском кино тенденции перехода от*

общего к частному – к глубокому раскрытию конкретных актуальных проблем человека и общества.

**Ключевые слова:** современное узбекское кино, образ современника, художественная интерпретация, социальные проблемы, эволюция жанров, экран и общество, национальный кинематограф.

## THE IMAGE OF THE CONTEMPORARY PERSON AND THE REPRESENTATION OF SOCIAL PROBLEMS IN UZBEK FEATURE FILMS OF THE NEW ERA

**Abstract.** *This article provides a comprehensive analysis of the formation and evolution of the contemporary character image and the concept of the protagonist in Uzbek feature films produced between 2017 and 2026. It scientifically examines the representation of the psychological and spiritual world of contemporaries, as well as global threats and social issues (such as terrorism, corruption, labor migration, and family dynamics) across various film genres. Based on the analysis, it is concluded that contemporary Uzbek cinema demonstrates a clear shift from general concepts toward specific, deeper artistic representations of pressing human and societal issues.*

**Keywords:** *contemporary Uzbek cinema, image of the contemporary, artistic interpretation, social issues, genre evolution, screen and society, national cinematography.*

Har bir davr o'z qahramonini izlaydi. Ayrim ijodkorlar ekranda real hayotga yaqin insonni – og'riqlari, orzulari va quvonchlari bilan yashaydigan zamondoshni ko'rsatishga urinsa, boshqalar tasavvur qanotida ideal obraz yaratishga intilmoqda. Shu tarzda ekrandagi inson qiyofasi orqali butun bir jamiyat qalbi, uning falsafasi va ma'naviy qiyofasi namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda jahon kino san'atida aynan shu masala – zamondosh obrazi evolyutsiyasiga, ya'ni ekrandagi inson qiyofasi orqali jamiyat o'zgarishini ko'rsatishga katta e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy filmlar qahramonlari global muammolarga yechim izlab, insoniylik, sadoqat, muhabbat va ezgulik kabi

umumbashariy g'oyalarni yoritish orqali tomoshabin qalbiga yo'l topmoqda. Bugungi kino – faqat hikoya emas, balki inson va jamiyat o'rtasidagi ruhiy muloqot, falsafiy izlanish maydonidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev barcha sohalar qatori kinematografiya rivoji uchun ham alohida e'tibor qaratdi. Xususan, davlat rahbarining 2017-yil 7-avgustdagi PQ–3176-son “Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi [1], 2018-yil 24-iyuldagi PQ–3880-son “Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi [2] hamda 2021-yil 7-apreldagi PQ–5060-son “Kinematografiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarining ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratish to'g'risida”gi [3] Qarorlari Yangi O'zbekistonda yangi filmlar ishlab chiqarishda muhim qadam bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 3-avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari bilan uchrashuv o'tkazib, milliy madaniyatimiz, adabiyot va san'atimizni rivojlantirishga doir dolzarb masalalar, muhimi, ularni qanday hal etish yo'llari xususida to'xtalib o'tdi. Xususan, zamondosh qahramon yaratish masalasiga tanqidiy yondashib, kinematografistlar oldiga qator talablar qo'ydi. Davlat rahbari bu masalaga shunchaki, zo'rma-zo'raki yondashib bo'lmasligini ta'kidladi. Bir necha yillardan beri dolzarb masala – zamondosh obrazini yaratish borasidagi izlanishlar va harakatlarni inkor etmagan holda, jamiyat hayotida unutilmas voqea bo'ladigan darajadagi filmlar yaratilmaganini tanqid qildi. Bu borada keyinchalik shaxsan Prezidentning o'zi kino san'atida qanday izlanish olib borish kerakligi, kimlarni zamondosh qahramon sifatida ekranga olib chiqish lozimligi xususida zarur takliflar berdi [4].

Shuningdek, 2020-yil 20-noyabrda yurtboshimiz “O'zbekfilm” kinostudiyasida kino san'ati faxriylari, rejissyorlar, aktyorlar, kinoshunoslar va bir qator soha mutasaddilari bilan uchrashib [5]: “Kino juda murakkab, xalqimiz, jamiyatimiz uchun muhim soha. ... Kino – tarbiyaning zamini”, degan fikrlarni aytgandi. Haqiqatdan, kino dolzarb muammolarni ekranda kinematografik talqinda

ishonarli tarzda ifodalab berishga qodir san'at turi bo'lib, yangi davrga kelib, bu borada tamomila yangicha izlanishlarga qo'l urildi.

Davlat rahbarining kinematografiya sohasini yuqori darajaga olib chiqishga qaratilgan islohotlari natijasida 2017-yildan boshlab ekranda yangi zamondoshlar obrazining paydo bo'la boshlashi muhim jihatlardan bo'ldi. O'tgan davrga nisbatan kam filmlar yaratilgan bo'lsa-da, ularning g'oyaviy-badiiy jihatiga bo'lgan talab kuchaydi. Globallashuv davrida o'zaro ijtimoiy munosabatlar ishtirokchisi bo'lgan kishilarning xarakteri ochib berilgan filmlar yaratila boshladi. Bunday kartinalarda insonni anglash, tushunish va his qilishga e'tibor qaratildi. Umuman olganda, ekranda "Inson – birinchi o'rinda" degan qarash yuzaga chiqdi.

O'zbekiston badiiy kinosi mavzu jihatidan boyidi. Alohida tarmoq sifatida faoliyat ko'rsatayotgan mahalliy tijoriy kinostudiyalar, shuningdek, qator davlatlar kinoijodkorlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. Katta ekranda bugungi kun illatlari, jamiyat rivojiga to'siq bo'layotgan qator muammolar o'z aksini topdi. Ilgari filmlarda bir yoki bir necha zamondoshlar hayotidagi muayyan masalalar talqin etilgan bo'lsa, endilikda butun bir xalq, jamiyat rivojini ortga surayotgan illatlar yoritila boshladi. Jumladan, "Dadam betob" (rejissyor Z.Musoqov, 2017), "Birinchi avgust" (rejissyor A.G'aniyev, 2019) filmlarida qahramonlar, asosan, jamiyatda aks ettirilsa-da, ularning bu xatti-harakati bevosita oilalarga ta'sir etayotganini ko'rish mumkin [6].

So'nggi yillarda rejissyorlar "poetik kino" an'alarini biroz chetlab o'tgan holda, asosan, global mavzudagi filmlar yaratishga intilmoqda. Shu ma'noda kinoijodkorlar zamondoshlar obrazini yaratishda bu masala yuzasidan ko'plab mavzularga murojaat etdi. "Tinchlik ortida" (ssenariy mualliflari: A.Yo'ldoshev, M.Abduxoliqov, S.Hamroyev, rejissyor A.Bekturdiyev, 2018), "Qora zarba" (ssenariy muallifi S.Hamroyev, rejissyor Samiddin Lutfullayev, 2018), "Yolg'on girdobi" (ssenariy mualliflari: E.Hasanova, A.Yo'ldoshev, G'.Shermuhammad, rejissyor N.To'laxo'jayev, 2018), "Men terrorchi emasman" (rejissyor Muhammad Ali Iskandarov, 2021), "Baron-2" (rejissyor Rustam Sa'diyev, 2022) filmlarida

jamiyat rivojiga to'siq bo'layotgan turli oqimlarga kirgan, giyohvandlik, terrorchilik kabi illatlarga bilib-bilmay aralashib qolgan kimsalar va ularga qarshi kurashgan vatan posbonlari obrazlari yaratildi.

Rejissyor Hilol Nasimovning jangari janridagi "Hayot" (ssenariy mualliflari: Iqbol Mirzo, Hilol Nasimov, Zulfiya Yunusova, operator Husan Aliyev, 2018) filmi 2000-yil Surxondaryoda sodir bo'lgan voqealarga asoslangan. Bosh qahramon Hayot – harbiy (Fotih Nasimov ijrosida). Uylanishiga bir necha kun qolgan Hayotjon komandirlarini to'yga taklif qilish uchun Farg'onadan Toshkentga keladi. Bu paytda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlarida terrorchilar guruhi yurtimizga bostirib kirayotgani haqida xabar keladi. O'z qasamiga sodiq Hayotjon yurtimiz tinchligini saqlash uchun jangga otlangan yigitlar bilan birga dushmanga qarshi kurashish uchun yo'l oladi. Jangda mardonavor kurashib, g'olib bo'lgan yigitlar yo'qotishlar va jarohatlar bilan ortga qaytadilar. Hayotjon ham jangda yaralanadi. Afsuski, u o'z to'yiga yetib borolmaydi. Xalqqa ovoza qilingani uchun ota-onalar kuyovsiz to'y o'tkazishga majbur bo'ladi. Avvaliga ularning turli mish-mishlardan boshlari egilgandek bo'lsa-da, biroq televizor orqali hozirda kuyov yurt tinchligi uchun mardonavor kurash olib borayotganini ko'rib, barcha undan faxrlanadi.

Ushbu film aynan mazkur jangda halok bo'lgan vatandoshlarimiz xotirasiga bag'ishlangan. Film so'nggida rejissyor dushmanga qarshi kurashda mardlarcha halok bo'lgan yigitlar haqida faktologik ma'lumotlar keltiradi. Davr muammolariga qarshi kurashgan personajlarning vatanparvarlik, insoniylik, mehr-oqibat, muhabbat, sadoqat, samimiyat, tirishqoqlik, soddalik, ishonuvchanlik xarakterlariga urg'u beriladi. Ssenariy muallifi va rejissyor Muhammad Ali Iskandarovning jangari janridagi "Men terrorchi emasman" (operator Husan Atabayev, 2021) filmi ham global mavzuda ishlangan. Film qahramonlari – Alixon (Alixan Husniddinov ijrosida) va Sadridin (Sadridin Amriddinov ijrosida) mehribonlik uyida tarbiyalangan. Ular uyushgan jinoyatchilik guruhiga a'zo bo'lib, Suriyada terroristlar tomonidan amalga oshirilayotgan qo'poruvchilik harakatlarida bevosita

ishtirok etadilar. Film mavzusi eski bo'lishiga qaramay, yangi shaklda yaratilgan. Qahramon doimo o'zining kundalik turmushini videotasmaga muhrlab boradi. Jinoyatchilar qo'lga tushganda, ushbu muhim manba ko'p savollarga javob topishda yordam beradi. Filmda postanovkachi rassom – Bahriddin Shamsutdinov va ovoz rejissyori – Konstantin Filanov ishi alohida ajralib turadi. Voqea sodir bo'layotgan makonni yaratishda maksimal darajadagi reallik va vaziyatning jiddiyligini namoyon etuvchi pavilonlar tomoshabin diqqatini tortadi. Turli shovqin va ovoz zamondoshlarimiz tushgan holatni teran anglash imkonini beradi. Rejissyor film so'nggida Suriyadagi vaziyat haqida ko'plab faktologik ma'lumotlar keltiradi.

Yangi O'zbekiston kino san'ati yangicha rivoj topayotgan bir paytda rejissyorlar o'zini to'ldirantirgan va ayni damda qiynayotgan mavzularga murojaat qilib, yangi qahramonlar yaratdilar. Shu bois milliy kinematografiyada qator zamondosh obrazlar gavdalandi. Muallif va rejissyor Zulfiqor Musoqovning “Hayrat” (operator Azizbek Arziqulov, 2021) filmida ssenariy yozishga mehri baland zamondoshimiz – Rustam Azizov hayoti aks ettirilgan. Filmda butun global dunyoni tarixiy kesimda va chegaralarning buzilishida ko'rish mumkin. Zamondoshni gavdalandirishda retrospektiv yondashuv, ya'ni uning o'tmishi va bugunini ifoda etish orqali insonning azaliy qadriyatlarga qanchalik sodiq ekani oydinlashadi [6]. Dilbar Yusupovaning “Bardosh” (2021) filmida 2020-yil butun dunyoni larzaga solgan Covid-19 pandemiyasi davrida kun-u tun tinim bilmay mehnat qilgan shifokorlarning umumiy tipaji gavdalandirildi. Mavzu yangi bo'lishiga qaramay, rejissyorning masalaga jiddiy yondashmagani seziladi. Aslida bu mavzu doirasida dunyo kinoixlosmandlari qalbidan o'rin oladigan darajada ta'sirli qahramon obrazini yaratish mumkin edi. 2024–2025-yillar kinosida dolzarb ijtimoiy va oilaviy muammolarga murojaat qilish ko'lami yanada kengaydi. Ayniqsa, mehnat migratsiyasi va uning oilaviy munosabatlarga salbiy ta'siri mavzusi qator filmlarda markaziy o'ringa chiqdi. Rashid Malikovning “Paxta” (ssenariy mualliflari: R.Malikov, Ya.Milenin; “Oltin Humo – 2025” milliy kino taqdimotida “Eng yaxshi operatorlik ishi” (operator – Boris Litovchenkova) va “Eng

yaxshi rassom ishi” (rassom – Bektosh Rajabov) g‘olibi [7]; 46-Qohira xalqaro kinofestivali ishtirokchisi [8] hamda Abu Tolib Adamkulovning “O‘g‘il” (ssenariy muallifi Zulfiya Qurolboy qizi, 2025) filmlarida ushbu global muammo ayollar va farzandlar fojiasi orqali ochib beriladi. “Paxta” filmida Gulchehra (Xurshida Arabshoyeva ijrosida) obrazi orqali sabr va sadoqat egasi bo‘lgan o‘zbek ayolining ichki kuchi va umidi gavdalantirilgan bo‘lsa, “O‘g‘il” filmida oiladagi notinch muhitning 3 avlod erkaklari hamda farzandlar ruhiyatiga salbiy ta’siri psixologik teranlik bilan yoritilgan.

Xulosa qilib aytganda, 2017-yildan boshlab filmlarda jamiyatdagi mavjud illatlar ro‘yi-rost ekranga olib chiqildi. Xususan, bu paytga kelib, korrupsiyaga qarshi kurashish muhim masalalardan biriga aylandi. Insonlarning turmush tarzi boricha ko‘rsatildi. “Dadam betob” filmida muhtojlikdan kirakashlik qilayotgan ayol obrazi paydo bo‘ldi. “Birinchi avgust” filmida abituriyentlar uchun muhim sana bo‘lgan 1-avgustdagi “o‘yin”larni uyushtiruvchi kishilar obrazi Bo‘ri va uning sheriklari misolida ochib berildi [6]. 2017–2026-yillar davomida rejissyorlar ijodida inson qalbiga kirib borishda yangicha dunyoqarashning vujudga kelgani, zamondoshlarning ruhiy-ma’naviy olamidagi o‘ziga xoslik, kartina tasviriy olamining go‘zalligi, grafikaning keng imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ommaviy kadrlarning ortishi, aktyorlarning hayot haqiqatlariga mos ijrosi, filmlarning davlat siyosati bilan hamohang tarzda, ammo badiiy jihatdan sayqallangani muhim jihatlardan bo‘ldi. Ssenarist obrazi o‘zbek badiiy kinosiga yangi qahramon bo‘lib kirdi (“Hayrat”); shifokor obrazi gavdalantirildi (“Bardosh”); yurt tinchligi, osoyishtaligi uchun xizmat qilayotgan jasoratli harbiylar obraziga qayta-qayta murojaat qilindi (“Hayot”, “Tinchlik ortida”). Shuningdek, adashgan zamondoshlar obrazlari yaratildi (“Qora zarba”, “Yolg‘on girdobi”, “Baron-2”, “Men terrorchi emasman”).

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti “Kino san’ati va audiovizual tadqiqotlar” bo‘limining “Zamonaviy O‘zbekiston kino san’atida tarixiy xotira reprezentatsiyasi” mavzusidagi tadqiqot ishi doirasida olib

borilgan ilmiy o'rganish davomida bugungi kun O'zbekiston kinematografida umumiylikdan xususiylik tomon intilish tendensiyasi kuzatilayotgani aniqlandi. Ekranida hayotdagi umumiy emas, asosan, aniq va dolzarb masalalarga e'tibor qaratilmoqda.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-avgustdagi "Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3176-son Qarori. <https://lex.uz/docs/3298092>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-iyuldagi "Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–3880-son Qarori. <https://lex.uz/docs/3835308>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-apreldagi "Kinematografiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarining ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratish to'g'risida"gi PQ–5060-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-5374446>

4. Mirziyoyev Sh. *Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir* // "Xalq so'zi". 2017-yil, 4-avgust.

5. Karimova N. *O'zbekiston kino san'ati (o'zbek, rus, ingliz tillarida). Matn muallifi – N.Karimova (kitob-albom). – Turkiya, Istambul: Mega Basim, 2021. – 480 b.*

6. Niyazova X. *Badiiy kinoda zamondosh obrazi [Monografiya]. – Toshkent: Science and Innovation, 2025. – 232 b.*

7. Usmonova N. "Oltin humo" mukofoti sohiblari aniqlandi [Elektron manba] // Uza. – 2025. – 18-dekabr.  
[uza.uz/uz/posts/oltin-humo-mukofoti-sohiblari-aniqlandi\\_797148](http://uza.uz/uz/posts/oltin-humo-mukofoti-sohiblari-aniqlandi_797148)

8. Алимова А. *Узбекский фильм впервые представлен на Каирском международном кинофестивале [Электронный ресурс] // УЗА (Национальное информационное агентство Узбекистана). – 2025. – 17 ноября.*